

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 6 (12)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
тарих фанлари доктори (DSc)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиязарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳаммадовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Abduraxmonova Kamolaxon Ravshanjon qizi TIBBIYOT ANTROPOLOGIYASI DOIRASIDA BEMORLARNING KASALLIKLAR JARAYONIGA BO‘LGAN QARASHLARINI TAHLIL QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	5
2	Artikov Ulug‘bek Latifjon o‘g‘li BO‘Z RANGLI SOPOL IDISHLARNING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI	12
3	Askarov Ollabergan Ikrom o‘g‘li FARG‘ONA VODIYSI SO‘NGI BRONZA-ILK TEMIR DAVRI TARIXI PALEOBOTANIK MATERIALLARDA AKS ETISHI	24
4	Бахранов Шерзад Таштурсунович СОВЕТ ХУКУМАТИ ТОМОНИДАН ЎЗБЕКИСТОН ССР ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ СОҲАСИДАГИ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ ВАЗИФАЛАРИНИ ҲАЛ ҚИЛИШ MASALASI ТЎҒРИСИДА	36
5	Mo‘ydinov Doniyorjon Avazbek o‘g‘li AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI DARYO KECHUVLARI TARIXSHUNOSLIGIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR	55
6	Normurodov Dilmurod Raxmatullyevich KITOB TUMANIDAGI SANGANAK (MAKRID) SOY HAVZASIDA OLIB BORILGAN YANGI ARXEOLOGIK QIDIRUV ISHLARI NATIJALARIDAN	60
7	Norova Dildora Radjabovna BOSH KIIYIMLARI VA ULARDAGI ZARDO‘ZLIK SAN’ATINING O‘ZIGA XOSLIGI	76
8	Nosirova Dlrabxon Ikromjon qizi KORONAVIRUS PANDEMIYASI VA UNING TA’SIRIDA OVQATLANISH MUASSASALARI FAOLIYATIDAGI O‘ZGARISHLAR	84
9	Облобердиев Жасурбек Косим угли КОНТАКТНАЯ И ЭНДОГЕННАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ ТРАДИЦИОННОГО ГОСУДАРСТВА: БУХАРА ПРИ МУЗАФФАРЕ И АБДУЛАХАДЕ	90
10	Priniyazov Jetkerbay Adilbayevich QIZIL ANGOBLI SOPOL IDISHLARNING QO‘QON SHAHRINING YOSHINI ANIQLASHDAGI O‘RNI	100
11	Qulboyev Nishonboy Sobur o‘g‘li SANGZOR HAVZASINING TOG‘-OLDI HUDUDLARIDA ANIQLANGAN YANGI YODGORLIKLARNING LANDSHAFT-XO‘JALIK TIZIMI	110
12	Муминов Алишер Гаффарович., Эрназаров Шермухаммад Эшбекович ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИ ДЕКАНЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ЧИЗГИЛАР	120

13	Рахимова Ирода Халимовна МЕЖДУНАРОДНАЯ ОБСТАНОВКА И ЕВРОПЕЙСКИЕ МИССИИ В ОСМАНСКОЙ ИМПЕРИИ: ГЕРМАНИЯ И ВЕЛИКОБРИТАНИЯ (XIX В.)	134
14	Саидова Шахноза Шахназаровна УЧАСТИЕ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОГРАММ УЗБЕКИСТАНА	143
15	Tuxtabekov Kozimbek Azimbekovich “ULUS” ATAMASINING KELIB CHIQISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI	160
16	Унгарова Ойдин Кобулжон кизи ИСТОРИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ С 1991 ПО 2023 ГОДЫ: ПРОБЛЕМЫ И ДОСТИЖЕНИЯ	168
17	Xakimova Shoira Sag‘dullayevna O‘ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI MANBALAR DOIRASIDA SHAMOL ENERGIYASIDAN FOYDALANISH TARIXI	176
18	Ҳамраев Суннатилло Аллабердиевич БУХОРО АМИРЛИГИГА РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ТОМОНИДАН ЮБОРИЛГАН А.Ф. НЕГРИ МИССИЯСИ ТАРИХШУНОСЛИГИ	184
19	Xolliyev Azizbek Go‘zalovich XIX ASRDA JAHON TEMIR YO‘L QURILISHI: ASOSIY YO‘NALISHLAR VA TENDENSIYALAR	195
20	Xolikulov Axmadjon Boymaxammatovich BUXORO AMILIGINING QO‘QON XONLIGI BILAN MUNOSABATLARI	208
21	Xomitov Ravshan Xomitovich MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MILLIY OZCHILIK HUQUQLARINING TA‘MINLANISHI MASALASIGA OID	221
22	Шакиров Ильяс Рахимзянович КУЛЬТУРНО-ГУМАНТАРНЫЕ СВЯЗИ УЗБЕКИСТАНА И ФИЛИППИН: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАП	229
23	Эргашев Хусан Юсуп ўғли ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИНИНГ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ ЛОЙИҲАЛАРДАГИ ИШТИРОКИ (TACIS-TEMPUS МИСОЛИДА)	237
24	Eshkuvatov Bobir Valikul o'g'li GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA UNING DINIY-MAFKURAVIY HAYOTDA NAMOYON BO‘LISHI	242

Eshkuvatov B. V.

«Жахон тарихи» кафедраси доценти, PhD

Ўзбекистон Миллий университети

Bobir_eshkuvatov@mail.ru**GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA UNING DINIY-
MAFKURAVIY HAYOTDA NAMOYON BO‘LISHI****ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada zamonaviy globallashuv jarayonlarining mohiyati, ularning diniy-mafkuraviy hayotga ko‘rsatgan ta’siri va bu jarayonning ijtimoiy-madaniy muhitda namoyon bo‘lish shakllari ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda diniy qadriyatlarning global axborot almashinuvi, transmilliy mafkuraviy ta’sirlar, diniy identitetning transformatsiyasi hamda globallashuv sharoitida yuzaga kelgan yangi diniy harakatlar faoliyati kabi masalalar o‘rganiladi. Shuningdek, maqolada globallashuvning diniy barqarorlikka ta’siri, mafkuraviy xavfsizlik omillari va milliy-ma’naviy an’analarni saqlash mexanizmlarining ilmiy asoslari yoritiladi. Tadqiqot natijalari globallashuv sharoitida diniy-mafkuraviy jarayonlarni chuqur anglash va ularga nisbatan ilmiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: globallashuv, diniy-mafkuraviy hayot, identitet, axborot maydoni, transmilliy mafkura, diniy barqarorlik, ma’naviy xavfsizlik, modernizatsiya.

KIRISH

Biz yashayotgan dunyo dinamik o‘zgarishlar va global aloqalar ta’sirida murakkablashib bormoqda. So‘nggi yuz yilliklar davomida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida yuz bergan faol integratsiyalashuv natijasida xalqaro hamjamiyat sezilarli o‘zgardi va, aytish lozimki, dunyo yaxlit bir organizmga aylandi. Jahon hamjamiyati o‘z rivojlanishida yangi bosqichga qadam qo‘ydi. Endi u avvalgi bosqichlardan ham o‘zgarishlar miqyosi, ham faol integratsiya va universallashtirish xususiyatlari bilan farq qila boshladi.

Bugungi kunda globallashuv turfa fikrlar va g‘oyalar negizida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlarini qamrab olgan muammoga aylandi. Globallashuv munosabatlarining ko‘p qirraliligi sabab, bu ijtimoiy voqelikka nisbatan yagona tafsif yoki ilmiy qarash hozircha shakllanmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, butun dunyoda turli nizo va karama-karshiliklar avj olib, tinch-osoyishta xayot va xavfsizlikka nisbatan xavf-xatarlar kuchayib borayotgan bugungi kunda ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali jamiyatimizni yanada birlashtirish, yoshlarimizda umuminsoniy qadriyatlarga xurmat, bilim olishga, ma’naviy kamolotga intilish tuygusini yuksaltirish alohida ahamiyat kasb etmokda” [1,455].

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Globallashuv keng miqyosli jarayon bo‘lgani sabab, tabiiyki, mazkur obyektga bag‘ishlangan tadqiqot va ilmiy izlanishlar ham turlicha. Ayrim ilmiy izlanishlarda

globallashuv jarayonlarining siyosiy omiliga to'xtalgan bo'lsa[2,212], uning demografik tomonlariga bag'ishlangan tadqiqotlar ham yetarlicha[3,164].

G'arb jamiyatida hozirgi kungacha globallashuv tendensiyalari iqtisodiy integratsiya negizida boshlangan, degan qarash ustuvor bo'lib kelmoqda[4,250]. Globallashuv - axborotlashuv jarayonlari bilan bevosita aloqador bo'lib, axborot texnologiyalarining mislsiz rivojlanishi butun insoniyatni yagona tarmoqqa birlashtirdi.

Tadqiqotchi M. Delyaginining fikricha, globallashuv jarayoni ilg'or informatsion texnologiyalar asosida vujudga keladigan, mukammal global ahamiyatdagi axborot makoni sifatida shakllana bordi[5,38-49].

Boshqa bir olim: - "Globallashuv hududlar va butun dunyo integratsiyasi va yaqinlashuvi hosilasidir. Globallashuv natijasida olam o'zining butun subyektlariga chambarchas bog'liq va aloqador" – deya ta'kidlaydi[6,8-11].

Masalaning ikkinchi tomoniga ko'ra "globallashuv deganda, asosan, umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunish keng tarqalgan. Bunday tushunish bir yoqlama bo'lib, uning tub mohiyatini ochib bera olmaydi va globallashuvning faqat salbiy hodisa sifatida talqin etilishiga olib keladi. Vaholanki, globallashuv - umumiy ma'noda bir tomondan, muayyan hodisa sifatida jarayonning barcha mintaqalar, davlatlar va butun yer yuzini qamrab olganini, ikkinchi tomondan, uning insoniyat taqdiriga daxldor ekanini anglatadi" [7,64].

Globallashuv jarayonlari haqida tadqiqotchi va mutaxassislar tomonidan bildirilayotgan fikr-mulohazalarga tanqidiy karash maqsadga muvofiq. Chunki, fikrlar plyuralizmi sharoitida bildirilayotgan mulohazalarning barchasini ham haqiqat deb tan olib bo'lmaydi. Zero, ular chalkash va noaniq xulosalar qabul qilinishiga sabab bo'lishi mumkin. E'tibor qilinishi zarur bo'lgan yana bir jihat shundan iboratki, globallashuv tendensiyalariga har bir mutaxassis o'z sohasi va ilmiy qiziqishlari doirasidan kelib chiqqan holda yondashmoqda.

Ta'kidlash joizki, aksariyat olim va tadqiqotchilar tomonidan globallashuv jarayonlarining salbiy tomonlari ko'proq talqin qilinmoqda. Biroq texnologik taraqqiyot hamda inson tafakkuri mahsuli sifatida vujudga kelgan globallashuv insoniyat rivojida yangi texnogen jamiyat bosqichini boshlab berdi. Fan va texnika sohasidagi yutuqlar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, internet tizimi turli davlat va mintaqalar o'rtasidagi chegaralarni ochib bermoqda. O'zaro hamkorlik va integratsiya rivojiga katta xissa qo'shmoqda, bunga insoniyat guvoh. Biroq inson tafakkurining yuksak ifodasi bo'lgan bunday yutuqlar, ayni paytda katta kuch-qudrat va moliyaviy imkoniyatlarga ega markazlar tomonidan o'zlashtirilayotgani - globallashuv jarayonlarining yopiq xarakterini belgilamoqda[8,87-89].

Yuqorida ta'kidlanganidek, dunyo miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy integratsiya jarayonlari va ushbu xolatlarining takomillashib, globallashuv gacha o'sib chiqishida axborotlashuvning o'rni va roli beqiyos. Rossiyalik olim M.Reshetnikovning fikricha: "Yangi ixtiro va nanotexnologiyalar asrida axborot uzatish tezligining o'sishi va turli-tuman shakllarga kirib borishi natijasida iqtisodiy manbalarning yirik tashkilot va davlatlar o'rtasida bir paytlar mavjud bo'lgan nufuzi pasayib bormoqda. G'oyalar kuchi va izchilligi asosida iqtisodiy

resurslarning yengil ko'chib yurishi va mablag'larning yagona tarmoqda to'planishi bugungi kunda ikkilamchi mazmun kasb etmoqda[9,76].

Ushbu fikrni tahlil qilinsa, globallashuv sharoitida dunyoning ilg'or davlatlari zamonaviy texnologiyalarga egalik qilib, kapital va boshqa hayotiy resurslarni o'zlashtirib olmoqda. Zamonaviy nanotexnologiyalar, sun'iy intellekt, gen (nasl) injineriyasi kabi ilm-fanning murakkab tarmoqlaridagi yutuqlar asosan, rivojlangan mamlakatlarga tegishlidir. Oksford universiteti professori Nik Bostrom bu haqda quyidagicha fikr bildirgan: "Texnologik taraqqiyotning tezlashuvi tufayli insoniyat o'z takomilida katta tezlik bilan tub burilish nuqtasiga yaqinlashib kelayotganining ehtimoli katta. Endilikda insoniyatga yaxshi tanish bo'lgan yadroviy xavf qatoriga nanotizimlar va mashina intellekti kabi sohalarining jadal rivojlanayotgan texnologiyalari o'zining mislsiz imkoniyat va xatarlari bilan birga qo'shilmoqda. Kelajak, agar u bor bo'lsa, ana shu tendensiyalarga nisbatan munosabatimizga bog'liq. Modomiki, jadal rivojlanayotgan texnologiyalarni qo'llab-quvvatlar ekanmiz, insoniyat hozirgi jamiyatidan "post-insoniyat" yoki "anti-insoniyat" jamiyatiga o'tish dinamikasini yaxshi anglab yetish zarur. Ayniqsa, tuzoq qayerda joylashganligini, muqarrar o'limga olib borish yo'llarini payqay olish zarur" [10].

Mafkuraviy olamdagi diniy-ahloqiy, ijtimoiy-falsafiy globallashuv haqida fikr yuritganimzda, tamaddunlar tarixi bilan shug'ullanuvchi taniqli siyosatshunos olim Samuel Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" konsepsiyasiga to'xtalishni joiz deb topdik. Tadqiqotchi dunyo miqyosida sodir bo'layotgan global taraqqiyot istiqbollari zamonaviy qarashda tahlil qilishga urinib, uning fikricha, insoniyat taraqqiyotining keyingi mingyilligida dunyo qutblarga ajralgan holda rivojlanadi va ushbu jarayonda diniy negizga tayanuvchi tamaddunlar kurashi kuzatiladi. Olimning fikriga ko'ra, borliq olamida hozirga qadar vujudga kelgan sivilizatsiyalar kishilik jamoalarining muayyan maqsad va madaniy qadriyatlar asosidagi birikuvi natijasida paydo bo'lgan. Sivilizatsiyalarni tashkil etuvchi umumiy obyektiv belgilar (an'ana va qadriyatlar, til mansubligi, umumiy yoki yaqin kelib chiqish ya'ni, tarix, e'tiqod va din munosabatlari) bilan bir qatorda, insoniyat qatlamlarining subyektiv birxilligi alohida ahamiyat kasb etadi[11,33-48].

Shuningdek, olim tomonidan zamonaviy olamning manzarasi tamaddunlar xosligiga bevosita bog'liq bo'lib borishi masalalari talqin qilingan. Tamaddunlararo raqobat tushunchasi global taraqqiyot mezonlarini belgilab berishi olim e'tiboridan chetda qolmagan. Zamonaviy dunyoda hududlar miqyosidagi G'arb, islom, slavyan-provaslav, Janubiy Amerika va Afrika sivilizatsiyalari o'rtasida raqobat vujudga keladi. Xantington nazariyasiga ko'ra, og'ir oqibatlarga olib keluvchi tamaddunlarning xatarli to'qnashuvi sivilizatsiyalarning aynan diniy jihatlari bilan bog'liq bo'lishi bugungi kun mafkura olamining ziddiyatlarini ochib bermoqda[11,36].

S. Xantingtonning fikriga qaraganda, sobiq Sovet Ittifoqining parchalanib ketishi bilan o'z nihoyasiga yetgan "sovuq urush"dan so'ng, butun dunyodagi ikki qutblilik va siyosiy tafovut deyarli barham topdi. Lekin endilikda G'arb olamida - xristianlik va Sharq mintaqasida - islom hamda pravoslavlikdan iborat diniy e'tiqodlarga asoslangan mutlaqo yangi tafovut vujudga kelmoqda. E'tiqod

tushunchalari har qanday siyosiy tuzilmalardan yuqori turuvchi Osiyo mamlakatlari aholisi misolida bu bo‘linish o‘zining xatarli oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkinligi ilmiy farazlardan ko‘ra tobora reallik tomon qadam qo‘ymoqda[11,39].

Olim o‘z fikrini davom ettirib, Hindistondagi musulmonlar va hinduiylik diniga e‘tiqod qiluvchilar o‘rtasidagi ziddiyat va to‘qnashuvlarga to‘xtagan. Diniy asosdagi ushbu qarama-qarshiliklar bir davlat ichidagi voqealar negizida rivojlana borib, o‘zaro qo‘shni davlatlar - Hindiston va Pokiston o‘rtasida ham nizoli vaziyatlarni keltirib chiqarmoqda. Bu, o‘z navbatida, mintaqaviy va global xavfsizlik uchun ham real xavf-xatarni hosil qiladi. Diniy asosdagi kamsitilish ayniqsa Bolqon yarim oroli mamlakatlari va Isroil musulmonlari uchun ham taaluqliligi jiddiy tahdid sifatida baholanishi mumkin. Xantingtonning fikriga ko‘ra, ikki yirik dunyo dinlari - xristianlik va islom o‘rtasida “xatarli chiziq” mavjud bo‘lib, tamaddunlararo ziddiyatlar asta-sekin kuchaya boradi[11,47]. Mamlakatlar kelajagi uchun xavf tug‘diradigan jihati shunda-ki, bunday nizolarning etnik tarkibi murakkab, ko‘p e‘tiqodli davlatlarda kuzatilish ehtimoli yuqori.

Shu o‘rinda siyosatshunos olim ilgari surgan nazariyaning ayrim jihatlariga e‘tibor qaratish lozim. Birinchidan, muallif tomonidan ilgari surilgan qarashlar bir qancha obyektiv va subyektiv omillarga ega. Diniy o‘ziga xoslik asosidagi olamning globallashuv jarayoni nisbatan haqiqatga yaqin hisoblansa-da, diniy kayfiyatdagi to‘qnashuvlar va mojarolar masalasi reallikdan uzoqlashib ketmoqda. Chunki, jahon sivilizatsiyalari yaxlit xolatda shakllangach, dunyoning etno-ijtimoiy qiyofasi bir butun qadriyat va madaniyat darajasiga yetar ekan, qonli nizolar masalasi asta-sekin unutila boshlashi mumkin[11,46]. Fikrimizcha, bu bosqichda diniy va millatlararo bag‘rikenglik (tolerantlik) kabi umumbashariy qadriyatlar axloq meyori sifatida jamiyat hayotiga joriy qilinsa, yuqorida nazarda tutilgan har qanday qonli vaziyatlarni chetlab o‘tish imkoniyati yuzaga keladi.

Globallashuv jarayonining subyektiv omillari sanalgan dinlararo bag‘rikenglik va diniy mansublikdan qat‘i nazar, bir xil huquq va erkinliklarning ta‘minlanishi - jamiyat hayotida umume‘tirof etilgan huquqiy davlatchilik meyorlarining va turli xalqlar hamda etnik birliklar o‘rtasida totuvlikning ta‘minlanishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi ham xalqaro munosabatlarning to‘laqonli subyekt sifatida dunyo mamlakatlari bilan ikki va ko‘p qirrali ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy-siyosiy, madaniy-gumanitar sohalarida hamkorlik aloqalarini olib boradi va, albatta, globallashuv jarayonlaridan chetda qolib keta olmaydi. Chunki: “Biz davlatimiz kelajagini o‘z qobig‘imizga o‘ralib qolgan xolda emas, balki, umumbashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o‘zlashtirgan holda tasavvur etamiz.... Biz butun ma‘rifatli dunyo, xalqaro hamjamiyat bilan tinch-totuv, erkin va farovon hayot kechirish, o‘zaro manfaatli hamkorlik qilish tarafdorimiz[12,114].”

Shu o‘rinda globallashuv va integratsiya jarayonlarining ahamiyati, uning natijasida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan turli-tuman ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-mafkuraviy vaziyatlar tahlili mamlakatimiz olimlarining ham diqqat-e‘tiborida ekanligini ta‘kidlash o‘rinli[13,160].

Butun dunyoda sodir bo'layotgani kabi mamlakatimizda ham globallashuv tendensiyalarining salbiy oqibatlaridan biri bo'lgan ommaviy madaniyat niqobi ostidagi milliy ma'naviyat va qadriyatlarimizga zid bo'lgan "madaniyatsizlik"ning targ'ib qilinayotgani ko'plab olimlar tomonidan jiddiy tanqid qilinmoqda[14,144]. Globallashuv odamlarga g'am-tashvish keltiradi va ijtimoiy hayotning internatsionallashuvidan kelib chiqadigan yangi global muammolarni paydo qiladi. Ana shunday muammolardan biri aholining yoshlar qatlami va ularni har xil yot g'oyalardan himoya qiluvchi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, milliy qadriyatlar va ma'naviy merosimizga ta'sir qiluvchi salbiy omillarni bartaraf qilishdan iborat. Bizningcha, bu jarayonda yoshlar orasida doimiy va tizimli ravishda ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi targ'ibot ishlarini olib borish lozim.

Bugungi kunda butun dunyo xalqlari siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik inqirozlar bilan bir qatorda, "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'sirlariga qarshi jiddiy kurash olib bormoqda. Ayniqsa, bu jarayon jahon siyosiy sahnasiga yaqinda qadam qo'ygan, bir mafkuraviy tizimdan ikkinchisiga o'tish bosqichida turgan davlatlarga jiddiy xavf solishi mumkin. Chunki, aynan O'zbekiston sharoitida kommunistik mafkura va uning axloq normalaridan voz kechilganidan so'ng jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan "ommaviy madaniyat"ning yopirilib kirishi mumkinligini unutmasligimiz kerak" [15,117].

Shunday murakkab sharoitda yoshlarda sog'lom fikr va dunyoqarashni shakllantirishda o'zbek xalqining asrlar davomida yuzaga kelgan milliy-ma'naviy merosi va qadriyatlaridan oqilona foydalanish zarur[16,47].

Bizning fikrimizcha, globallashuv sharoitida g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi zamonaviy axborot-texnologiyalarini joriy qilgan holda mafkuraviy targ'ibot ishlarini olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Globallashuv jarayonlarini to'la anglab yetish va mohiyatini anglash uchun uning yo'nalishi va qirralarini alohida ochib berish - haqqoniy fikrni shakllantirishga yordam beradi.

Shu ma'noda iqtisodiy globallashuv tahliliga to'xtaladigan bo'lsak, dunyo davlatlari o'rtasida iqtisodiy integratsiyaning kuchayib borishi natijasida iqtisodiy globallashuv yuzaga kela boshladi. Agar ushbu jarayonning tarixiy jihatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ikkinchi jahon urushidan keyin Yevropada yuzaga kelgan iqtisodiy va siyosiy inqiroz jahon siyosatida Yevropa davlatlari rolining pasayishiga olib keldi. Bir paytlar jahon miqyosida yuqori mavqega ega bo'lgan Angliya, Fransiya, Germaniya, Italiya kabi davlatlar ikki buyuk davlat oralig'ida qolib, 50 yillar oxirlarida oddiy Yevropa davlatlariga aylandi va to'liq ma'noda mustaqil davlat maqomini yo'qotdi. "Marshall rejasi", NATO kabi harbiy-siyosiy tuzilmalarning yaratilishi Amerika yadro quroli Yevropa siyosati va iqtisodiyoti rivojlanishida uzoq vaqt ustuvor rol o'ynashini anglatardi. Aynan mana shu sharoitda Yevropa davlatlari o'rtasida iqtisodiy sohadagi hamkorlik masalalari ko'rib chiqila boshlandi. O'z navbatida iqtisodiy hamkorlik - suverenitetni yo'qotishni nazarda tutmasdi. Aksincha, undan olingan foyda hukumat tomonidan xalq ehtiyojini qondirishi mumkin edi. Shunday qilib, Yevropa mamlakatlari

rahbarlari o'rtasida faqat iqtisodiy cheklovlardan voz kechib, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish mumkin, degan fikr ustuvor ahamiyat kasb etdi.

1950 yilda Fransiya tashqi ishlar vaziri Robert Shuman G'arbiy Yevropada ko'mir va po'latni birlashgan holda ishlab chiqarishni yaratish taklifi bilan chiqdi[17,16]. Shu tariqa Fransiya, Italiya, G'arbiy Germaniya, Belgiya, Gollandiya, Lyuksemburg mamlakatlari tomonidan Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi tashqil etildi. Uning faoliyati faqat bir soha bilangina bog'liq bo'lsa-da, biroq butun sanoat ishlab chiqarishi uchun ahamiyatga ega edi. 1957 yilda ushbu tashkilotga a'zo davlatlarning "Rim protokollari" deb nomlangan hujjatni imzolashi bilan Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatiga asos solindi. Yillar davomida bu tashkilotga a'zo mamlakatlar soni oshib bordi. 1991 yil dekabrda YEIHga a'zo davlatlardan 12 tasi Maastrixt bitimlarini imzolandi. Natijada, Yevropa Hamjamiyati shakllandi.

Yevropa Ittifoqi tajribasidan shuni anglash mumkin-ki, iqtisodiy globallashuv asosida iqtisodiy erkinlik muhiti yotadi va ushbu muhitni iqtisodiy jarayonlarning muhim komponentlari hisoblangan investitsiya, moliyaviy mablag'lar, ishchi kuchi va startaplar hamda g'oyalarning erkin aylanishi yotadi.

Siyosiy globallashuv esa muayyan davlat yoki mintaqada vujudga keladigan siyosiy inqiroz va muammoning tez orada butun dunyoga tarqalishi bilan bog'liq bo'lgan jarayondir. Dunyoning biror-bir nuqtasida sodir bo'lgan beqaror vaziyat tizimli ravishda boshqa hududlarga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishi tabiiydir[18,416].

O'z navbatida halqaro siyosiy tashkilotlarning institutsionallashuvi ham siyosiy globallashuv tendensiyalarining e'tiborli jihatlaridan biri sifatida bu jarayon ham xorijiy olim va tadqiqotchilar tomonidan batafsil tahlil qilingan[19,303].

Barcha sohalarida bo'lgani kabi madaniyat sohasida ham globallashuv tendensiyalarini kuzatish mumkin. Madaniy globallashuv asosan G'arbga xos bo'lgan madaniyat belgilarining jahon mamlakatlari o'rtasida tarqalib, zamonaviy hayotning asosi sifatida qabul qilinayotganligini bildiradi. Sharq mamlakatlarida ham Yevropa individualizmiga taqlid qilish xolatlarining kuchayganligi - globallashuv jarayonlarining keng quloch yozganligidan dalolatdir.

Yuqorida qayd etilgan olim va mutaxassislar fikr-mulohazalari va ilmiy adabiyotlardan olingan iqtiboslar ma'lum ma'noda o'zining ilmiy asosiga ega bo'lsa-da, bu xulosalarni oxirgi yechim sifatida qabul qilish to'g'ri emas, fikrimizcha. Bildirilgan fikr-mulohazalarga kreativ nigoh bilan qarash bugungi kun fani oldida turgan vazifalardan biridir.

Yetakchi ilmiy markaz va tadqiqotchilar fikrlarini umumlashtirib shunday xulosaga kelish mumkin-ki, asrimiz boshlariga kelib jahon hamjamiyatida o'zaro aloqalar shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan tashqarida tura oladigan davlat bo'lishi mumkin emas.

Turli sohalaridagi integratsiyaning dunyo mamlakatlariga o'tkazadigan ta'siri ham turlicha bo'lmoqda. Mazkur jihat muayyan mamlakatlarning iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyati bilan bog'liq. Bir so'z bilan aytganda globallashuv - mamlakatlar iqtisodiyoti, madaniyati, ma'naviyati, odamlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlikning kuchayishidir[20].

Shuningdek, globallashuv o'z bosqich va o'lchovlariga ko'ra dastlab muttasil davom etadigan tarixiy jarayon hisoblanib, obyektiv voqelikning izchil harakati asta-sekinlik bilan jahonning gomogenlashuvi (bir jinsli) va universallashtirish jarayoniga qadam qo'yadi. Globallashuv jarayonlarining yakuniy bosqichiga kelganda, davlatlar o'rtasidagi milliy chegaralarning «yuvenil ketish» jarayoni kuzatiladi. Bu borada rossiyalik olim A.Parshev butun jahon globallashuv tendensiyalariga quyidagicha ta'rif beradi: "Aslida, globallashuvning asosiy mazmuni boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotning qo'shimcha qiymatini, dunyodagi asosiy zahiralarini o'zlashtirishdan iborat" [21,15].

Globallashuv jarayonlariga xos bo'lgan jihatlardan yana biri shu-ki, u ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-siyosiy hayotning barcha jabhalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Barcha soha va tarmoqlarda bo'lgani kabi, dinlararo munosabatlarda ham integratsiya jarayonlari kuchayib borayotganligini alohida ta'kidlash lozim. Bu, o'z navbatida, tadqiqot davomida hal qilinishi zarur bo'lgan vazifalar sirasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov "Globallashuv – bu, avvalo, hayot sur'atining beqiyos darajada tezlashuvi" [19,111]. deb ta'kidlaganida haq edi. Aynan mana shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, bugungi kunda dunyo davlatlarining integratsiya va globallashuv jarayonlarida ishtirok qilish darajasi ularning qanchalik rivojlangan ekanligini aniqlab beruvchi mezon sifatida qabul qilinmoqda. Masalan, AQSH da "Foreign policy" nomli jurnal nashr qilinib, u jahon mamlakatlarining globallashuv indeksini muntazam e'lon qilib boradi[22]. Jurnal tomonidan qabul qilingan indeksni tahlil qiladigan bo'lsak, butun dunyo davlatlarining integratsiyasi masalalari, biron-bir voqea yoki axborotning chegara bilmasdan yashin tezligida harakatlanishi natijasida umumiy sayyoraning yaxlit organizmga aylanish jarayonini aks ettiradi.

"Foreign policy" jurnali globallashuv jarayonlarini aniqlab boruvchi to'rtta yirik sektordagi 14 ta ko'rsatkich asosida baholab boradi. E'tiborli jihati ushbu jurnal fokusida dunyo ishlab chiqarishining qariyb 90 foizini o'zida jamlagan eng rivojlangan dunyo davlatlari qamrab olingan. Jahon mamlakatlarining globallashish darajasini aniqlovchi dastlabki ko'rsatkich iqtisodiy integratsiya sanaladi. O'z navbatida iqtisodiy integratsiya darajasini muayyan mamlakat iqtisodiy xolatini ko'rsatuvchi savdo-sanoat, investitsion muhit va moliya mablag'larining erkin dinamikasiga qarab belgilash qabul qilingan. Ikkinchi yo'nalish esa, mamlakat fuqarolarining o'zaro munosabatlarini aks ettiradi. Uchinchi sektor - davlatlar aholisining global internet tarmog'i bilan ta'minlanganlik darajasi bilan bog'liq. To'rtinchi yo'nalish - siyosiy integratsiya masalalarini o'z ichiga olib, mamlakatlarning umumjahon ahamiyatiga ega bo'lgan siyosiy munosabatlarga tortilishini anglatadi[23,54-66].

Yuqorida qabul qilingan umumjahon globallashuv indekslarini tahlil qilishdan oldin shu narsani alohida ta'kidlash joizki, globallashuv degani bu faqatgina hozirda ko'pchilik tomonidan tushuniladigan amerikalashuv jarayoni emas, balki, butun dunyo davlatlarining integratsiyasi masalasi tushuniladi. E'tiborli jihati, globallashuv darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda aholi turmush darajasi,

fuqarolar hayoti faravonligi, insonlarning o'rtacha umr ko'rish davrining yuqoriligini qayd etish lozim.

KOF(Swiss Economic Institute) Shveytsariya Iqtisodiyot instituti tomonidan 2002 yildan buyon olib borilayotgan dunyo mamlakatlarining globallashuv indeksi 2017 yilgi natijalariga ko'ra dunyoning eng globallashgan davlati Niderlandiya hisoblanib, 100 ballik tizimdan uning globallashuv darajasi 92,84 ballni tashkil qilgan. Shuningdek, ushbu tahlil natijalariga ko'ra Irlandiya - ikkinchi, Belgiya - uchinchi, Avstriya - to'rtinchi, Shveytsariya - beshinchi pag'onani egallagan. Kuchli o'nlik safidan Daniya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Vengriya o'rin olgan[24].

Loyiha rahbari Germaniyaning Ruprecht-Karls universiteti (Ruprecht-Karls University Heidelberg, Germany) professori Aksel Dreher (Axel Dreher)ning ta'kidlashicha, ushbu indeksni aniqlashtirishda Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi yirik xalqaro tuzilmalar va siyosiy institutlarning ma'lumotlariga tayanilgan[24].

Ma'lumotlarga ko'ra, reytingda yetakchilikni qo'lga qiritib turgan Niderlandiya va Irlandiya kabi davlatlari aholisining diniy qadriyatlar va marosimlarga bo'lgan munosabati ham ijobiy. Mamlakat fuqarolarining deyarli teng yarmidan ko'p qismi diniy ibodatlarda muntazam qatnashib kelmoqda[24]. Reytingning yuqori pog'onalarini egallab turgan davlatlarda xristianlikka bo'lgan qiziqish kuchayib borayotganligini ham alohida ta'kidlash lozim.

Lekin, yuqorida qayd etilgan indeks ko'rsatkichlari asosida joriy davlatlarda diniy qadriyat va madaniyat yuqori, degan xulosa qilishdan uzoqmiz. Chunki, mamlakatlar aholisining dinga bo'lgan munosabatlarini ham globallashuv darajasiga bog'lash nisbatan yangilishliklarga olib kelishi ehtimoldan holi emas.

Globallashuvning diniy xususiyati haqida fikr yuritganda, R.Robertson hamda P.Beyyer kabi mutaxassislarining xulosalarini keltirib o'tish muhim. Ularning fikriga ko'ra, XX asr ikkinchi yarmi - XXI asr boshlariga kelganda kishilik jamiyati hayotida diniy qadriyatlarning o'rni va roli o'sa boshladi. Aholi orasida diniy ibodat va majburiyatlarni ado etuvchilar soni ko'paya bordi. Masalan, asrimiz boshlariga kelganda har o'n nafar fransuzdan uch nafari diniy ibodatlarni bajarish uchun cherkovlarga qatnashi kuzatilgan. O'z navbatida, sobiq sovet mamlakatlarida ham 1990 yillar boshlaridan kuzatilgan "islom uyg'onishi" tendensiyasi fikrlarning dalilidir. Yana bir narsaga alohida e'tibor qaratish lozim-ki, yangicha ruhda shakllanayotgan diniy omildan geosiyosiy maqsadlarda foydalanuvchi kuchlar va markazlar paydo bo'layotgani joriy davrga xos salbiy tendensiyalardan biri sifatida talqin qilinishi mumkin.

Yana bir mutaxassis M.Orlovning fikriga ko'ra: "XVI asrning boshlariga qadar butun Yevropa hududi diniy ta'sir ostida bo'lib, din globallashuvning birlamchi elementi hisoblangan. XXI asr boshlariga kelib, diniy niqob ostidagi moliyaviy maqsadlarga yo'nalgan g'oyalar paydo bo'ldi-ki, bunday globallashuv negizida har tomonlama chuqur o'ylangan strategiya yotibdi" [25,91-94].

Mahalliy mutaxassislar X.Jumaniyozov va U.Nigmanovalarning fikrlariga ko'ra, globallashuv sharoitida dunyoning diniy manzarasi o'zgarib, din o'zining avvalgi ijtimoiy maqomini yo'qotib, jamiyatga bo'lgan ta'sir kuchi pasayib boradi.

Jamiyat sohalarining sekulyarlashuvi dinning uzoq yillar davomida bajarib kelgan an'anaviy funksiyalarini to'liq bajara olmasligiga olib keladi[25,115].

Barcha jabhalarda bo'lgani kabi diniy globallashuv jarayonlarida ham o'ziga ko'proq ommani jalb qilish, o'z auditoriyasini kengaytirishga qaratilgan o'ziga xos marketing sodir bo'layotganligi ham hech kimga sir emas[26].

Butun jahonda gomogenlashuv tendensiyalari kuchayib borayotgan bunday vaziyatda hech qanday hodisaning yopiq ravishda sodir bo'lishi mumkin emas, shu jumladan, diniy globallashuvning ham.

Diniy globallashuvning birlamchi elementlari "jahon dinlari" atrofida sodir bo'la boshladi. Shu o'rinda jahon dini deb ataluvchi tushunchaga ta'rif beradigan bo'lsak, dunyo bo'ylab o'zining katta miqdorda e'tiqod qiluvchilar guruhiga ega bo'lgan, muayyan xalq yoki etnosga tegishli bo'lmagan e'tiqod shakli - dunyo dini sifatida tan olinadi[27,34].

Hammaga ma'lumki, bugungi kunda xristianlik, islom va buddaviylik dinlari dunyo dini sifatida tan olinadi. Bizdagi ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda yer yuzida 2,4 mlrd odam xristianlik, 1,5 mlrdga yaqin islom diniga e'tiqod qiluvchilar, yarim milliard atrofida buddistlar qayd etilgan. Albatta, bu raqamlar ham nisbiy bo'lib, har yilning oxirida aniqlanadigan ko'rsatkichlar aniq hisob-kitobda ma'lum chalkashliklarga olib kelishi mumkin[28].

Yuqorida qayd etilgan raqamlardan shu narsa anglash mumkin-ki, hech qaysi mafkura diniy mafkura kabi odamlarni o'z atrofida jipslashtira olmaydi va o'z navbatida diniy e'tiqod tushunchalari globallashuv va integratsiya jarayonlariga eng ko'p tortiluvchi hamdir.

Dinshunoslik fanidan ma'lum-ki, dinning birlashtiruvchilik funksiyasi mavjud. U o'z g'oyalari atrofida milliardlab jamoani jamlashi mumkin. Aynan mana shu jihat dunyo dinlarining globallashuv hususiyatlarini anglatadi.

Bugungi kun mafkura olamida "islom globallashuvi", "xristian globallashuvi" kabi yangi talqinlar vujudga kela boshladi. Ya'ni butun dunyoda islomiy qadriyatlarining keng tarqalib, kuchaya borishi, jamiyat hayotida musulmon odatlarining ustuvorligi tan olinishi jarayoni islomiy globallashuv sifatida qabul qilinishi mumkin[29,216].

O'z navbatida xristian globallashuvi jarayoni xristian dinining vujudga kelgan davridan - Iso payg'ambarning dunyoga kelgan davridan boshlangan, degan qarash mavjud. Milodiy birinchi asrdan boshlab, dastlab Yevropa xalqlari o'sha davr shart-sharoitlariga mos keladigan e'tiqodiy qarashlar asosida birlasha boshlagan. Keyinchalik xristianlik e'tiqodi dunyoning boshqa hududlariga turli yo'llar orqali (bu haqda dissertatsiyamizning birinchi bobida batafsil ma'lumot qayd berilgan) tarqalgan va dunyoviy e'tiqod darajasiga ko'tarilgan. Xristianlikning maslak-maqсадlarini o'zida aks ettiruvchi - Injil muqaddas manba sifatida asrlar davomida Yevropa xalqlari uchun dastur-ul amal vazifasini o'tadi va o'tamoqda. Xristianlik dinidagi globallashuv masalalariga o'z e'tiborini qaratgan olimlardan biri O.Platonov: "Xristianlik mafkurasi tufayli butun insoniyat axloqiy qadriyatlarda yangi bir bosqichga qo'tarildi. Kishilik jamiyati antik davrdagi yovvoyilikdan mehribonlik sari qadam tashladi. Xristianlik mafkurasi yer yuzida yangi o'ziga xos bo'lgan madaniyat, san'at yaratdi" [30], deb ta'rif bergan.

Yana bir rossiyalik olim R.Lunkinning qarashlariga ko'ra, butun jahon miqyosida sodir bo'layotgan globallashuv tendensiyalari xristianlikning yirik tarmoqlaridan biri bo'lgan protestantlar uchun qo'l kelmoqda. Bozor munosabatlari sharoitida yangidan shakllanayotgan jamiyatlar aholisi uchun protestantlar ilgari surayotgan g'oyaviy qarash va maslaklar qulayligi bilan ajralib turmoqda. Chunki, protestant ruhoniylari o'zlarining qadimiy e'tiqod belgilariga sodiq qolgan holda diniy marosim va ibodatlardagi dabdababozlik, ortiqcha hashamatlarni rad qilishmoqda. Bu esa yangi mustaqillikka erishgan mamlakatlar nisbatan og'ir axvoldagi fuqarolari uchun ayni muddaodir. Bundan tashqari protestantizm namoyandalari markaziy hukumatlar tomonidan amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni ham qo'llab-quvvatlaydi. Bu, o'z navbatida, ularni davlatlarning qonuniy hukumatlari tomonidan ham himoya qilinishiga sabab bo'lmoqda. Olimning fikriga ko'ra, protestant cherkovlarining yuqorida ta'kidlangan zamonaviylik xususiyatlari ularning dunyo ma'naviy olamini zabt etishlariga muhim asos bo'lishi mumkin[31].

Yuqorida qayd qilingan fikrlar tahliliga asoslanib, ularda biryoqlamalik kuchli ekanligini ta'kidlash joiz. Muammoga xolislik nazari bilan qaralmaganligi oqibatida, mazkur olimlar ilmiy farazlari g'ayriilmiy hususiyat kasb etgan. Agar xristianlik butun dunyoni madaniy komillikka yetaklagan bo'lsa, XVI asr boshlarida G'arbiy Yevropada boshlangan uyg'onish jarayonining birlamchi sifati cherkov asketizmidan voz kechishga qaratilmagan bo'lar edi yoki protestantlikning ideallashtirilayotgan mafkurasi "Sovuq urush" poyoniga yetganiga 30 yillik davri mobaynida dunyo dinlarining yetakchi tarmog'iga aylangan bo'lar edi.

Mafkuraviy jarayonlar dinamikasi va diniy globallashuv sharoitida ikki asosiy holat hal qiluvchi o'ringa ko'tarildi. Birinchisi, demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati shakllanishining asosiy shartlaridan biri hisoblangan vijdon erkinligini ta'minlash yo'lida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar jarayoni natijasida dunyoning bir qator mamlakatlarida diniy uyg'onish boshlangan. Yaratilayotgan diniy erkinliklar fonida har bir diniy konfessiyani o'z tarafdorlari sonini ko'paytirish, e'tiqod g'oyalarini yanada kengroq targ'ib va tashviq etish borasidagi ishlarini kuchaytirishga qaratilgan harakatlarda kuzatishimiz mumkin.

Ayniqsa, bunday jarayonlar ateistik mafkura inqirozga uchrab, jamiyat hayotida yangi diniy munosabatlar paydo bo'layotgan post-sovet davlatlari misolida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Ikkinchi jarayon axborotlashgan jamiyat bilan bog'liq. Ya'ni, bugungi kunda xohlagan diniy axborotning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida aholi har bir qatlami orasiga tezkor kirib borishini va amalda foydalanilayotganini anglatadi. Diniy ma'lumotlar integratsiyasi ushbu jipslashuv jarayoniga ijtimoiy birliklarni ham qamrab olmoqda, buni alohida ta'kidlash o'rinli, nazarimizda.

Globalashuv sharoitida insoniyatning diniy ongi ham shakllanib, rivojlanib boradi.

Bir paytlar "afyun" deb uqtirilgan diniy e'tiqodning hozirgi kunda ikki asosiy vazifasi tasnif qilinmoqda. Bular: birlashtirish va ekzistensial-psixologik vazifalardir. Birinchi vazifa muayyan diniy e'tiqod yoki qarashning o'z g'oyalari

atrofida birlashtirishini anglatadi. Ushbu jarayon insonlarning diniy his-tuyg'ularini junbushga keltirish orqali, shuningdek, diniy urf-odat, marosim va ibodatlar orqali boshqariladi. Dinning kompensatorlik funksiyasiga mukammal ta'rif va tahlillarni yana bir rus olimi K. Yerofeyevaning ilmiy qarashlari orqali shakllantirishimiz mumkin[32,46].

Bugungi kunda jamiyat hayotida namoyon bo'layotgan informatsion ma'lumotlar ta'sirida shaxs qadriyatlari, xulq-atvori, dunyoqarashi, ijtimoiy-iqtisodiy ongning o'zgarishi muqarrar jarayonga aylandi. Informatsion oqim psixologik yo'nalganligi sababli insonlar ruhiyati, turmush-tarziga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Informatsion oqimni anglash, unga munosabat bildirish shaxsda ijtimoiy voqelikni erkin baholash, turlicha yo'nalishlarni shakllantirish, ijtimoiy axloq ko'nikmalarini namoyon etishga olib keladi. Axborot sohasidagi globallashuv dunyoning turli burchaklarida istiqomat qiluvchi insonlarning o'zaro muloqoti va ilm-fan yutuqlarini o'zlashtirish uchun ulkan imkoniyat yaratadi. "Axborotlashuv asri" deb nom olgan XXI asrda axborot tabiiy boyliklar, energiya zahiralari qatoridan joy oldi va aytish mumkin-ki, taraqqiyotning bosh mezoniga aylandi.

Aynan mana shunday axborotlar oqimi sharoitida insonlarning bir-birlari bilan diniy munosabatlar orqali yaqinlashuvi kuzatilmoqda[33,77].

Lekin olimning bu fikrlari nisbatan biryoqlama mazmunga ega. Chunki, din va diniy qadriyatlar qadim-qadimlardan odamlarni axloqiy jihatdan poklab, ma'naviy komillik darajasiga olib chiqishga yordam bergan. Kundalik hayotda ro'y beruvchi qiyinchilik va musibatlarni yengib o'tishida ruhiy kuch bag'ishlagan[32,52]. Tahlillardan kelib chiqadi-ki, diniy munosabatlarning jonlanishi masalalarini globallashuv va axborot asri bilan bog'lash u qadar to'g'ri emas, nazarimizda.

Globallashuv-kishilik jamiyatidagi mahalliy ahamiyatga molik ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-gumanitar geosiyosiy makonlarning bir tizimga birlashuvi jarayoni ekan, undan ikki maqsadda, ya'ni ezgulik va yovuzlik maqsadlarida foydalansa bo'ladi.

Xuddi shu nuqtai nazardan, globallashuv jarayonlari avj olayotgan bir davrda mamlakatlardagi diniy e'tiqod vakillari va konfessiyalarda o'z g'oyalarini yanada kengroq targ'ib etish imkoniyati paydo bo'lmoqda. O'z navbatida bu imkoniyatlar orqali dinlararo raqobat muhiti yuzaga kelmoqda. Ushbu raqobat jarayonini tan olingan demokratik qoidalar asosida tartibga solish masalalari davlatlar qonuniy hukumatlari tomonidan nazoratga olinib, choralar ko'rilayotgan bo'lsa-da, ayrim diniy maslak vakillari tomonidan o'zga din vakillarini kamsitish, ular sha'niga to'g'ri kelmaydigan yolg'on ma'lumot va axborotlarni tarqatish xolatlari uchrab turibdi. Bundan xulosa qilishimiz mumkin-ki, mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan turli diniy tashkilot va konfessiyalar globallashuv tendensiyalaridan yetarli darajada maqsadli va madaniyatli foydalanish ko'nikmalariga ega emas.

Agar dunyo dinlarining mazmun-mohiyatini chuqurroq, ya'ni, falsafiy idrok etadigan bo'lsak, diniy e'tiqod shakllaridagi birlik g'oyasini anglab yetishimiz mumkin. E'tiqodlardagi "birlik sarchashmasi" insonlar o'rtasida o'zaro hurmat, bag'rikenglik, muhabbat ekanligini anglash mumkin. O'z navbatida mana shunday anglash payg'ambarlarga nozil qilingan "Muqaddas kitob"larning barchasi biri

ikkinchisining isloh qilingan ko‘rinishi, mantiqiy davomi ekanligini tushunib yetish mumkin. Agar jamiyat a‘zolari ya‘ni, insonlarda ana shunday sog‘lom fikr va qarashlar shakllanib, rivojlanib borsa, ularning o‘zga diniy tuyg‘ularga nisbatan bepisandlik va og‘ir bo‘lsa ham tan olish zarur, mutaassiblik kayfiyati ongli ravishda jilovlanadi.

Yer yuzida axborotlashuv jaryonlarining kuchayishi natijasida har bir diniy e‘tiqod o‘z g‘oyalarini ommaga istalgan usulda yetkazish imkoniyatini qo‘lga kiritdi. Bir vaqtlardagi cherkov yoki jamoat va‘zlariga deyarli hojat qolmadi. Vaqtli matbuot, televedeniye, radio eshittirishlar va so‘nggi yillarda internet tarmog‘ining keng imkoniyatlari diniy targ‘ibotda alohida rol o‘ynamoqda. Shu o‘rinda bir jihatga e‘tibor qaratish lozim-ki, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan dinni niqob qilib olgan soxta dindor va buzg‘unchi kuchlarning targ‘ibot vositasi sifatida foydalanishiga yo‘l qo‘ymaslik va, ayniqsa, yosh avlodda axborotni o‘zlashtirish madaniyatini shakllantirish lozim.

XULOSA

Keltirilgan dalillar va qilingan tahlil-mulohazalardan xulosa qilish mumkin-ki, diniy globallashuv - yangi mafkura sharoitida tolerantlik va vijdon erkinligi tamoyillariga tayangan holda din va e‘tiqodlararo munosabatlar integratsiyalashuvi sanaladi. Masalaning ikkinchi jihati ham mavjud bo‘lib, ushbu diniy globallashuv dinni niqob qilib olgan radikal kuchlar faolligining ham oshib borishi sanaladi.

Bag‘rikenglik va sog‘lom raqobat muhiti barcha sohalarda bo‘lgani kabi ijtimoiy guruhlar va diniy konfessiyalar o‘rtasida ta‘minlangan taqdiridagina, dunyoviy davlat va erkin fuqarolik jamiyati yaratilishi mumkin. Shu o‘rinda ta‘kidlash lozim-ki, O‘zbekiston Respublikasida din sohasidagi siyosat qonuniylik, demokratiya, dunyoviylik tamoyillari asosida olib borilmoqda. Konfessiyalararo munosabatlarda muammolar, ayni paytda, diniy ekstremizm kabi xavf-xatar yuzaga kelmasligi uchun mamlakatimizda insonlar diniy e‘tiqodidan kat’i nazar, teng huquq va imkoniyatlarga egaligi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida kafolatlangan[34,13].

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, mamlakatlardagi ko‘p e‘tiqodlilik sharoitida inson huquq va erkinliklarini ta‘minlashda tolerantlik tamoyili hal qiluvchi o‘ringa chiqib bormoqda. Erkin fuqarolik jamiyatida har bir inson istagan dinga e‘tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmasligi mumkin. Bu inson ruhiy erkinligining hal qiluvchi tamoyili va ajralmas xususiyatidir. Diniy e‘tiqod masalasida majburlash choralarining qo‘llanishi esa shahsiy va siyosiy huquqlarning qo‘pol buzilishiga olib keladi.

Dunyo miqyosida sog‘lom fikrli, turli diniy e‘tiqodga sig‘inuvchi yetakchilar tomonidan globallashuv sharoitida to‘g‘ri tanlangan maqsadlar asosida integratsiyalashuv holatlari ham ko‘zga tashlanmoqda. Jumladan, 2008 yil 21 oktabrda jahonning yirik dinlari qatoriga kiruvchi islom, nasroniy, buddaviylik diniga e‘tiqod qiluvchi dunyoning turli mintaqalarida istiqomat qiluvchi 80 ga yaqin tashkilot yetakchilari tomonidan umumjahon muammolari hisoblangan onalar va bolalar bevaqt o‘limi, qashshoqlik, yuqumli hastaliklarga kurashish maqsadida Umumjahon dinlararo uyushmasi tashkil qilindi[35].

Ushbu tashkilotning Istanbulda o'tkazilgan ikki kunlik ilmiy seminari Birlashgan Millatlar Tashkilotining aholishunoslik bo'yicha jamg'armasi tomonidan moliyalashtirib turildi. Ushbu jamg'arma bugungi kunda dunyo miqyosidagi yuzdan ortiq mamlakatlardagi besh yuzga yaqin diniy tashkilotlar bilan o'zaro yordam va hamkorlik munosabatlarini olib bormoqda. Diniy globallashuvning yana bir jihati insoniyat oldida turgan umumiy muammolar atrofida turli diniy sekta va tashkilotlarning hamjihatlikda birlashuvi va konstruktiv muloqotga kirishuv jarayonidir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Рус православ черковининг Тошкент ва Ўзбекистон епархиясининг 145 йиллигига бағишланган тантанали тадбир иштирокчиларига // Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Асарлар жилди 2 том.: Ўзбекистон, 2018. – Б.455.
2. Гаджиев К.С. Введение в геополитику. – Москва: ЛОГОС, 2000.-432 с; Глобализация и моделирование социальной динамики. – Москва: Институт социальных наук, 2001.-237 с.; Крылова И.А. Проблема безопасности России в контексте глобализации. – Москва: Институт философии РАН, 2001.-94 с.; Глобализация и моделирование социальной динамики. \Отв.ред.-Николаев В.Р. – Москва: Институт социальных наук, 2001.-212 с
3. Практическая демография\ Под. ред. Л.Л.Рыбаковского. – Москва: ЦСП, 2005.-164 с.; Л.Л.Рыбаковский. Миграция население. Три стадии миграционного процесса.(Очерки теории и методов исследования) – М.:УФН, 2000.-164 с.
4. Геогенезис: философия и методология геоэкономики и геофинансоф. Научный альманах высоких гуманитарных технологий. \Под.ред.Ивановой Г.М. – Москва: НАВИГУТ, 2003.-250 с.
5. Делягин М. Глобализация: варианты для России/Материалы круглого стола.-СПб.:Информационное агентство “РосБалт”, 2001. – С.38-49
6. Гринин Л.Е. Глобализация и национальный суверенитет // История и современность.-Москва, 2005.-№1,-с.8-11.
7. Очилдиев А. Глобаллашув ва мафкуравий жараёнлар. – Ташкент: “Муҳаррир”. 2009. – Б.64.
8. Малашиха Г. Тенденция гуманизации и дегуманизации экономики. В сб «Отчуждение человека в перспективе глобализации мира». Вып 1/ Под.ред. Б.Маркова, Ю.Солонина, В.Парцвания. СПб.: Петрополис, 2001. – С.87-99.: Марков Б. Человек и глобализация мира. В сб. Отчуждение человека в перспективе глобализации мира». Вып 1/ Под.ред. Б.Маркова, Ю.Солонина, В.Парцвания. СПб.: Петрополис, 2001. – С.100-122.: Эко У. Несколько сценариев глобальной войны/ Пер. с англ. СПб.: Сайт философского факультета СПб.ГУ-antroologia.spbu.ru
9. Решетников М.М. Глобализация- самый общий взгляд. Часть 1. – СПб., Восточно-Европейских институт психоанализа. 2002.-76 с
10. Ник Бостром. Угрозы существованию человечества. Анализ сценариев вымирания // 2017.http\\www.nick bostom.com.

11. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций? // ПОЛИС.-Москва.1994.- №1. – С.33-48
12. И.А.Каримов. Юксак маънавият-енгилмас куч. – Ташкент: ”Маънавият”,2008. – Б.114.
13. “Глобаллашув, миллий ғоя ва мафкура : муаммолар,ечимлар,истикболлар” мавзуидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари/ Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси И.Мўминов номидаги фалсафа ва ҳуқуқ институти. – Ташкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2009.-160 б.
14. Глобаллашув, оммавий маданият, миллий ғоя: Мақолалар тўплами/Масъул муҳаррир Р.Кўчқоров: Республика маънавият ва маърифат кенгаши, Миллий ғоя ва мафкура илмий-амалий маркази. – Ташкент: Маънавият,2009.-144 б.
15. Умаров Б., Жабборов Ш. Глобаллашув ва ёшлар тарбияси. – Ташкент: Академия, 2011.-47 б.
16. Г.Хидаятов. Жаҳон тарихи. – Ташкент: Шарқ.2004. – Б.16
17. Панарин А.С. Искушение глобализмом. – Москва: ЭКСМО-Пресс,2002.-416 с; Москвин Д. Трансформация политической системы России и политические вызовы глобализации // [http // mmj.ru/political_science.html](http://mmj.ru/political_science.html)
18. Бжезинский З. Выбор. Глобальное господства или глобальное лидерство. –М.:2004. -46-48 с.; Дергачев В.А. Глобалистика. – Москва: ЮНИТИ-ДАНА,2005.-303 с.
19. Глобаллашув шароитида миллий ғояга эҳтиёжнинг ортиши // <http://library.ziyonet.uz/uz/book/54613>
20. Паршев А.М. Глобализация. М.: 2014. – Б.15
21. Foreign Policy – the Global Magazine of News and Ideas // <https://foreignpolicy.com>
22. “Measuring Globalization” In Foreign Policy, March-April 2010.-54-66 pp.
23. The Index of Globalization 2017. [http: // globalization.kof.ethz.ch/](http://globalization.kof.ethz.ch/)
24. Орлов М. Место и роль религии в глобальных процессах современности // Власть.-Москва,2008. №4. – С.91-94
25. Жуманиёзов Х., Нигматова У. Глобаллашув асослари. Т.:”Нодирабегим” нашриёти.2020. – Б.115.
26. Гордеев К. Глобализация против христианства // [http: // www.zaistinu.ru/skrest/sk/100.html](http://www.zaistinu.ru/skrest/sk/100.html)
27. Назаров Қ. Бугунги дунёнинг мафкуравий манзараси. - Тошкент: «Ижод дунёси», 2002. –Б.34.
28. Религия в цифрах и фактах/2018/12/05/населен_9686
29. Новая социальная реальность глобального мира./Отв.ред.В.И.Иванов.- Красноярск:Издательство «Литера-принт»,2008.-214с.;Мартин Г.П., Шуманн Х. Западная глобализации:Атака на процветание и демократизацию.- М.:2001.-216 с.
30. Платонов О.А. Глобализация и христианство // «Русская линия», дата обращения. 27.04.2018. [http: // www.rusk.ru/news/02/1_news_27_01_c/htm](http://www.rusk.ru/news/02/1_news_27_01_c/htm).

31. Лункин Р. Протестантизм и глобализация на просторах Евразии // [http:// archipelag.ru/geoculture/religions/Eurasia/protestantism](http://archipelag.ru/geoculture/religions/Eurasia/protestantism)
32. Ерофеева К.Л. Человек в информационном обществе: сущность и существование.-Иваново,2007.-46 с.
33. Белл Д., Иноземцев В. Эпоха разобщенности. Размышления о мире XXI века. – Москва: Свободная мысль,2007. – С.77.
34. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Ташкент: Ўзбекистон.2018. – Б.13
35. Религиозные организации всех континентов создают глобальную сеть по борьбе с материнской смертностью, СПИДом и бедностью // [http:// un/by/unfpa/news/world/29-10-nw.html](http://un/by/unfpa/news/world/29-10-nw.html).

Эшкuvatов Б. В.

PhD., доцент кафедры «Всемирная история»
Национальный университет Узбекистана
Bobir_eshkuvatov@mail.ru

GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA UNING DINIY- MAFKURAVIY HAYOTDA NAMOYON BO‘LISHI

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится научный анализ сущности современных процессов глобализации, их влияния на религиозно-идеологическую жизнь и форм проявления этих процессов в социально-культурной среде. В исследовании рассматриваются вопросы взаимодействия религиозных ценностей с глобальным обменом информацией, транснациональными идеологическими воздействиями, трансформации религиозной идентичности, а также деятельности новых религиозных движений, возникших в условиях глобализации. Кроме того, в статье освещается влияние глобализации на религиозную стабильность, факторы идеологической безопасности, а также научные основы механизмов сохранения национально-духовных традиций. Результаты исследования способствуют глубокому пониманию религиозно-идеологических процессов в условиях глобализации и формированию научного подхода к их изучению.

Ключевые слова: глобализация, религиозно-идеологическая жизнь, идентичность, информационное пространство, транснациональная идеология, религиозная стабильность, духовная безопасность, модернизация.

Eshkuvatov B. V.

PhD., associate professor at the department of «World history»

National university of Uzbekistan

Bobir_eshkuvatov@mail.ru

GLOBALIZATION TRENDS AND THEIR MANIFESTATION IN RELIGIOUS AND IDEOLOGICAL LIFE

ABSTRACT

This article provides a scholarly analysis of the essence of contemporary globalization processes, their impact on religious and ideological life, and the ways these processes manifest within the socio-cultural environment. The study examines issues such as the interaction of religious values with global information exchange, transnational ideological influences, the transformation of religious identity, and the activities of new religious movements that have emerged under conditions of globalization. The article also elucidates the impact of globalization on religious stability, the factors of ideological security, and the scholarly foundations of mechanisms aimed at preserving national and spiritual traditions. The findings of the study contribute to a deeper understanding of religious and ideological processes in the context of globalization and to the formation of a scientific approach to their analysis.

Keywords: globalization, religious and ideological life, identity, information space, transnational ideology, religious stability, spiritual security, modernization.